

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KALABAEVA MADINA AMANGALIEVNA

**INGLIZ TILIDA IDIOMATIK IBORALARINI FILOLOG
TALABALARIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALAR BILAN
O'QITISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kalabaeva Madina Amangalieвна

Ingliz tilida idiomatik iboralarini filolog talabalariga innovatsion ta’lim
texnologiyalar bilan o‘qitish..... 3

Калабаева Мадина Амангалиевна

Иновационные образовательные технологии обучения
идиоматическим выражениям английского языка студентов-
филологов..... 27

Kalabaeva Madina Amangalieвна

Innovative educational technologies of teaching English idiomatic
expressions to philology students..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KALABAEVA MADINA AMANGALIEVNA

**INGLIZ TILIDA IDIOMATIK IBORALARINI FILOLOG
TALABALARIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALAR BILAN
O'QITISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4119 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedova Layloxon Tolibjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xashimova Dildarxan Urinbaevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kaipbergenova Feruza Tulepbergenovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (998-61) 223-59-25, Faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.K. Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

J.O. Tanibergenov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.A.Yusupov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda shiddat bilan kechayotgan globallashuv va jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish jarayonlari asnosida xorijiy tillarni, eng avvalo, ingliz tilini o‘qitishning ahamiyati jadal ortib bormoqda. Ingliz tiliga dunyoning ko‘plab mintaqalarida eng ko‘p ehtiyoj mavjud bo‘lgan xalqaro muloqot tili sifatida qaraladi va shu sababli u o‘z mavqeini mustahkamlashda davom etmoqda. Shular fonida filolog talabalar va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘qitishning yetakchi jihatlaridan biri sifatida ingliz tili idiomatikasini o‘rgatish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili idiomatikasini o‘rgatish muammosi lingvodidaktikasida chet tilini o‘qitishga ijtimoiy-madaniy lingvomamlakatshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlari nazariyasi nazaridan ko‘rib chiqilmoqda. Deyarli barcha idiomatik iboralar milliy madaniy stereotiplarning eksplikatorlari ekanligini hisobga olgan holda, muloqotda madaniy to‘siqlarni yengishga yordam beradigan o‘qitishda madaniyatlararo yondashuv yo‘nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda ingliz tili idiomatik iboralarini o‘rgatish muammolarini tadqiq qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu masala xususida Sent-Cloud Davlat universiteti (AQSH), Midlseks universiteti (Buyuk Britaniya), Moskva davlat universiteti (RF), Qozon federal universiteti (RF), Transbaykal davlat universiteti (RF), Haydarobod universiteti (Hindiston), Thuong May universiteti (Vyetnam), Adibuan Surabay universiteti (Indoneziya) olimlari va boshqalar ish olib bormoqda. Ingliz tilining idiomatik iboralarini o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj mehnat bozori sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda filolog talabalarning tayyorgarlik darajasiga yuqori talablar qo‘yiladi. Ularga idiomatik kompetensiyani singdirish bu tayyorgarlikning muhim komponenti sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbekistonda chet tillarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda “bir nechta xorijiy tillarni biladigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘qitish metodikasini takomillashtirish”¹ kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etayotgani ham shundan dalolat beradi. Bu esa filolog talabalarda xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining turli subkomponentlarini takomillashtirishga qaratilgan samarali metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarbligini ko‘rsatadi. Bunday subkomponentlardan biri til kompetensiyasi bo‘lib, uni to‘liq egallash o‘rganilayotgan tilning idiomatikasiga oid bilimlarni singdirishni o‘z ichiga oladi. Shuni inobatga olgan holda, ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarini o‘rgatishning innovatsion ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish muammosi alohida ahamiyat va dolzarblik kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018-йил 5-мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрат номидаги мактаб-интернатига ташрифидаги нутқи. Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhont-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 24.01.2024-y.

strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekistonda chet tillarini o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi VMQ-610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi VMQ-312-son “Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga oid bir qator boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan ta‘lim samaradorligini oshirish muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish masalalarini o‘rganishga T.K. Sattorov, G.T. Maxkamova, L.T. Axmedova, J.J. Jalolov, G.X. Bakiyeva, M.T. Irisqulov, F.M. Rashidova, M.D. Jusupov² va boshqalarning tadqiqotlari bag‘ishlangan. O. Musurmonova, F.R. Yuzlikayev, U.Sh. Begimqulov, K.D. Risqulova³ va boshqa shu kabi mamlakatimiz olimlarining ishlari chet tillarini o‘qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga bag‘ishlangan. Qoraqalpoq olimlari G. Aynazarova, Sh.B. Xojanov, A.K. Pirniyazova, U. Keulimjaeva⁴ va

² Sattorov T.K. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал – Т., 2009. – С. 45-150; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: Автореф. дисс... доктора пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 294 с.; Бакиева Г.Х., Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. “English B1. Student’s book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges”. – Т: Узбекистон, 2014 г. – 176 с.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим журнали. – Т., 2016. – № 6. – Б.70-71; Джусупов М. Речевая интерференция как результат двуединого отрицательного воздействия // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – М., 2021. №1. – С. 23-40.

³ Мусурмонова О. Юкори синф талабалари маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари. – Т.: Фан, 1995. – 165 б.; Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале пед. дисциплин). Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2005. – 303 с.; Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим замонвий ахбороттехнологияларни жорий этишининг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2007. –143 б.; Рискулова К.Д. Система формирования социолингвистической компетенции будущих учителей английского языка. Автореф. дисс... доктора наук (DSc) по пед. наукам. – Ташкент, 2017. – 64 с.

⁴ Айназарова Г. Каракалпак тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. – Нөкис, 2005. – 83 б.; Хожанов Ш.Б. Вопросы фразеологической антонимии в каракалпакском языке // Вестник ЧелГУ. – Челябинск, 2011. №17. – С. 158-160; Пирниязова А.К. Этнолингвистические особенности фразеологизмов со значениями доброжелательства и недоброжелательства (на материале каракалпакского языка) // Вестник

boshqalarning ilmiy ishlari ingliz, rus va qoraqalpoq tillari idiomatikasining turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ingliz tilidagi idiomatikani o'rgatish muammolari bilan N.A. Tuxtahadzhayeva, Sh.P. Rahimova, M.A. Rajabova, Sh.K. Niyazmetova⁵ kabi olimlar shug'ullangan. Qoraqalpog'iston Respublikasida chet tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirishga oid tadqiqotlar G.Yu. Atadjanovaning, D.K. Djumambetova, Sh.A. Orazimbetov⁶ ilmiy ishlarida bayon etilgan. Somatizmlni komponentlarga ega frazeologizmlarni o'rganishga doir tadqiqotlar B.K. Bekniyazov va S.A. Arzimbetova⁷ tomonidan olib borilgan.

A.V. Kunin, Y.A. Shafrin, A.V. Uxtomskiy, V.M. Savitskiy, O.A. Arakelyan, O.V. Prokurorova, E.V. Masalkova, A.F. Artemova, N.N. Amosova, N.F. Alefirenko, A.A. Izotova, E.S. Osipova, M.I. Vershinina, N.V. Chigina⁸ va boshqa shu kabi MDH davlatlari olimlarining ishlari ingliz tili idiomatikasining chet tili sifatidagi lingvistik va lingvodidaktik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Челябинского государственного университета. – Челябинск 2019. – № 6(428). – С. 127-135; Кеулимжаева У. Лексическая вариантность фразеологических единиц в русском и каракалпакском языках // Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – Нукус, 2022. – №1. – С. 91–93.

⁵ Тўхтаходжаева Н.А. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс... афтореф. – Тошкент, 2017. – 42 б.; Рахимова Ш.П. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. дисс...(PhD) афтореф. – Тошкент, 2019. – 48 б.; Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс... афтореф. – Бухоро, 2020. – 56 б.; Ниязметова Ш.К. Способы и методы обучения использованию фразеологических единиц в образовательном процессе // Таълим технологиялари / Педагогические технологии. – Ташкент, 2020. - №5 (90). – С. 38-43.

⁶ Атаджанова Г.Ю. Миллий аудиторияларда рус тилини ўрганишда инновацион технологияларни қўллаш ва янада такомиллаштириш. Пед. фанлари. фалс. докт. (PhD) дисс. – Нукус, 2020; Джумамбетова Д.К. Филолог талабаларга стилистика фанини ўқитишга миллий-маданий ёндашув. Пед. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. – Нукус, 2022; Оразимбетов Ш.А. Oqiwshilardn inglis tilin uyreniw motivaciyasin asirwda oqiw materiallarinda madeniyatlar araliq adisti qollaniw (ulwma orta bilimlendiriw mektepleriniñ 8-qaraqalpaq klasları misalında). P.f.f.d. (PhD) diss. – Nókis, 2024. – 135 b.

⁷ Бекниязов Б.К. Қарақалпақстан қазақлары тилиндеги соматикалық фразеологизмлердин лингвомәдений анализи. Фил. илим. филос. д-ри (PhD) дисс. – Нөкис, 2021; Arzimbetova S.A. Inglis ham qaraqalpaq barlıgınıñ tillik milliy kórinisinde “Head/BAS” komponentli frazeologiyalıq birlikler. Fil. ilim. filos. d-ri (PhD) diss. – Nókis, 2024.– 126 b.

⁸ Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. Опыт систематизированного описания. – М.: Международные отношения, 1972. – 288 с.; Шафрин Ю.А. Идиомы английского языка. Опыт использования. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2003.-558 с.; Ухтомский А.В. Английские фразеологизмы в устной речи. Учебное пособие. – М.: Либроком, 2005. – 128 с.; Савицкий В.М. Основы общей теории идиоматики. Учебное пособие – М.: Гнозис, 2006. – 208 с.; Аракелян О.А. Обогащение иноязычной речи студентов идиоматическими средствами выражения с помощью компьютерных технологий: (на материале английского языка). Автореф. дисс... канд. пед. наук. – СПб., 2006. – 22 с.; Прокуророва О.В. Обучение английским фразеологизмам студентов II-III курсов языковых факультетов на материале домашнего чтения). Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Волгоград, 2006. – 24 с.; Масалкова Э.В. Обучение общению на английском языке студентов факультета физической культуры. Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2006. – 24 с.; Артемова А.Ф. Английская фразеология. Спецкурс. – М.: Высшая школа, 2009. – 208 с.; Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – изд. 2-е, доп. – Москва: URSS, 2010. – 216 с.; Алефиренко Н.Ф. Идиоматика в языковой картине мира // Мовна картина світу словян і культура: матеріали міжнар. наук. конф., Люблін, 5-7 листопада 2010 р. / гол. ред. О. Тищенко. – Люблін; Рівне, 2010. – Т.1. – С. 8-14; Изотова А.А. Английская фразеология: аллюзии, идиомы, метафоры. Сборник статей. – М.:МАКС Пресс, 2014. – 92 с.; Осипова Е.С. Формирование идиоматической компетенции на основе ресурсов корпусной лингвистики в процессе подготовки переводчиков в сфере профессиональной коммуникации. Дисс... к. пед. наук. – СПб, 2016. – 216 с.; Вершинина М.И. Идиоматическая фразеология в английском языке делового общения: лексикологический, лексикографический и функциональный аспекты. Дисс... канд. пед. наук. – М., 2016. – 249 с.; Чигина Н.В., Изосимова Е.С. Английские идиомы как объект перевода // Инновационная наука. – Уфа, 2016. – №10-3. – С. 128-130.

Tilshunoslikda somatizmlarni o‘z ichiga olgan idiomalarni o‘rganishga P.G. Emery, E. Cliffs, A. Arany-Makkai, W.M. Rizq, J.M. Dixon, S.Abdramanova⁹ va boshqa olimlarning ishlari bag‘ishlangan.

Biroq hozirgi kunga qadar 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zbek tilida ta‘lim olayotgan 2-bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatishning innovatsion ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etish muammosi maxsus ishlab chiqilmagan. Shu bois ham, u o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda va shubhasiz, ilmiy-nazariy ishlab chiqilishi, ham eksperimental tadqiq etilishi lozim. Shu bois, sohani ham ilmiy, ham nazariy ishlanmalar, ham eksperimental tadqiqotlar obykti sifatida tadqiq etish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti “Zamonaviy filologiya nazariyasi va metodikasining dolzarb muammolari” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zbek tilida ta‘lim olayotgan 2-bosqich talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatish metodikasini innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikkinchi bosqich filolog talabalarini tomonidan o‘rganiladigan ingliz tili idiomatik iboralarni lingvokulturema-somatizmlar barqaror bo‘lgan lingvomadaniy maydonlarning idiomatik tarkibini hisobga olish asosida shakllantiriladigan o‘quv konsentrlari ko‘rinishida guruhlashning didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash;

ingliz va o‘zbek tillarini lingvistik, lingvomadaniy va lingvodidaktik nuqtayi nazardan chog‘ishtirish asosida ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatishda transpozitsiya va interferensiya holatlarini aniqlash, ularni o‘rgatish jarayonida hisobga olish mexanizmini takomillashtirish;

muammoli ta‘lim texnologiyasining olti bosqichi doirasida madaniyatlararo yondashuvni rivojlantirish hamda interfaol texnologiya usullariga tayangan holda ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

ikkinchi bosqich filolog talabalarida ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyani takomillashtirish maqsadida turli xil muammoli vaziyatlarni yaratish usullarini faollashtirish orqali “**Somatic idioms**” muammoli topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zbek tilida ta‘lim olayotgan 2-bosqich filolog

⁹ Emery, Peter G. “Body-part collocations and idioms in Arabic and English a contrastive study” // Thesis Online version, 1988; Cliffs E. Opening doors: Idioms in English. – NJ: Prentice Hall Regents, 1992; Arany-Makkai, Agnes. Russian and English idioms. – Hauppauge, N.Y: Barron's, 1997; Rizq W.M. Teaching English Idioms to L2 Learners: ESL Teachers' Perspective. – St. Cloud State University; Dixon J.M. English Idioms. Adamant Media Corporation, 2001; Abdramanova Saule. Processing of english idioms with body part components by native speakers of turkish learning english with ntermediate level of proficiency: Doctor of Philosophy Dissertation – 2012.

talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni innovatsion texnologiyalar asosida o'rgatish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpoq davlat universiteti, Urganch davlat universiteti va O'zbekiston davlat jahon tillari universitetlarining 355 nafar talabasi jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'zbek tilida ta'lim olayotgan 2-bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatish texnologiyalari, metodlari, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanilgan: qiyosiy tahlil; pedagogik kuzatuv (suhbat, anketa); pedagogik eksperiment; pedagogik monitoring; matematik-statistik tahlil; umumlashtirish usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkinchi bosqich filolog talabalarini tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan ingliz tili idiomatik iboralarni lingvokulturema-somatizmlar barqaror bo'lgan lingvomadaniy maydonlarning idiomatik tarkibini hisobga olish asosida shakllantiriladigan o'quv konsentrlari ko'rinishida guruhlashning didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan:

ingliz va o'zbek tillarini lingvistik, lingvomadaniy va lingvodidaktik nuqtayi nazardan chog'ishtirish asosida ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishda transpozitsiya va interferensiya holatlari aniqlanib, ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatish jarayonida ularni hisobga olish mexanizmi takomillashtirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyasining olti bosqichi (muammoli vaziyatni qo'yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o'tkazish; muammoning yechimini izlash; "aha-reaksiya"; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish) doirasida madaniyatlararo yondashuvni rivojlantirish asosida, hamda bu jarayonda interfaol texnologiya usullari (munozara usuli, empatiya usuli va "Xatolar bilan ma'ruza" usuli) hamda O'YOTFRT (RKMChP) texnologiyasi ("G'oyalar savati" va "Bashoratlar daraxti" usullari)ga tayanilgan holda ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tili idiomatik iboralarni o'rgatish metodikasi takomillashtirilgan;

ikkinchi bosqich filolog talabalarida ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyani takomillashtirish maqsadida turli xil muammoli vaziyatlarni yaratish usullarini (idiomatik faktlarni nazariy jihatdan tushuntirish va tahlil qilishning har xil turlarini o'tkazishga undash; idiomatik faktlarga nisbatan farazlarni ilgari surish; idiomatik faktlarni taqqoslash, solishtirish va umumlashtirishga undash; fanlararo aloqalarni o'rnatish) faollashtirish orqali "Somatic idioms" muammoli topshiriq va mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

"Authentic reading materials with activities, a practical manual for bachelor students" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va nashr etildi (Nukus, 2024-y.);

"Up to English Part II" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va nashr etildi (Toshkent, 2021-y.);

ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishda o'zbek-ingliz tillararo interferensiya (fasilitatsiya va sof interferensiya), shuningdek, til ichidagi interferensiya holatlari tavsiflandi;

“Somatik idiomalarning ingliz-o'zbek va o'zbek-ingliz tilidagi o'quv lug'ati” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning asosiligi, rasmiy manbalardan nazariy ma'lumotlarning olinishi, matematik statistika usullari bilan tasdiqlangan eksperimental ish natijalarining representativligi, takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan belgilanadi va olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishining 2-bosqich filolog talabalariga ingliz tili idiomatikasini o'rgatishning nazariy asoslari va uslublarini umumlashtirish hamda bu jarayonda madaniyatlararo yondashuvning rolini aniqlashdadir. Dissertatsiyada erishilgan ilmiy natijalar va xulosalar monografiya, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yozishda nazariy asos va manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olingan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishda taklif etgan innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodikasi, shuningdek, 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishining 2-bosqich filolog talabalariga ingliz tilining idiomatik iboralarni o'rgatish jarayoni, uni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar tadqiqot samaradorligini oshirish uchun hisobga olinishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot materiallari filologiya yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat va magistratura bosqichlarida ingliz tilidan mustaqil ta'lim va seminarlar tashkil etishda, magistrlik dissertatsiyalarini yozishda o'z tatbiqini topishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishining 2-bosqich filolog talabalarga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishning innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha ishlab chiqilgan tadqiqot natijalari asosida:

ikkinchi bosqich filolog talabalarini tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan ingliz tili idiomatik iboralarni lingvokulturema-somatizmlar barqaror bo'lgan lingvomadaniy maydonlarning idiomatik tarkibini hisobga olish asosida shakllantiriladigan o'quv konsentrlari ko'rinishida guruhlashning didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif va tavsiyalar Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-son xatiga asosan 2022–2024-yillarida amalga oshirgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasini bajarishda foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 10-fevral 429/02-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni xorijiy tillarni o'qitish jarayonida

o'rganiladigan til materialini tanlash, tasniflash va guruhlash muammosini hal qilishda yangi yondashuvlar bilan boyidi;

ingliz va o'zbek tillarini lingvistik, lingvomadaniy va lingvodidaktik nuqtayi nazardan chog'ishtirish asosida ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishda transpozitsiya va interferensiya holatlari aniqlanish, va ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatish jarayonida ularni hisobga olish mexanizmi bo'yicha natijalardan "Up to English Part II" o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-buyrug'iga asosan №110-219-son nashr ruxsatnomasi). Natijada o'quv qo'llanmaning kategorial-terminologik apparat boyitilib, ilmiy-nazariy asosi mustahkamlandi;

muammoli ta'lim texnologiyasining olti bosqichi (muammoli vaziyatni qo'yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o'tkazish; muammoning yechimini izlash; "aha-reaksiya"; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish) doirasida madaniyatlararo yondashuvni rivojlantirish asosida, hamda bu jarayonda interfaol texnologiya usullari (munozara usuli, empatiya usuli va "Xatolar bilan ma'ruza" usuli) hamda O'YOTFRT (RKMChP) texnologiyasi ("G'oyalar savati" va "Bashoratlar daraxti" usullari)ga tayanilgan holda ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tili idiomatik iboralarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflardan 60230100 – Filologiya va til o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Authentic reading materials with activities , a practical manual for bachelor students" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishda qo'llanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-buyrug'iga asosan №174944-son nashr ruxsatnomasi). Natijada mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladigan "O'qish va yozish amaliyoti" fanining nazariy bazasi boyidi;

ikkinchi bosqich filolog talabalarida ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyani takomillashtirish maqsadida turli xil muammoli vaziyatlarni yaratish usullarini (idiomatik faktlarni nazariy jihatdan tushuntirish va tahlil qilishning har xil turlarini o'tkazishga undash; idiomatik faktlarga nisbatan farazlarni ilgari surish; idiomatik faktlarni taqqoslash, solishtirish va umumlashtirishga undash; fanlararo aloqalarni o'rnatish) faollashtirish orqali "Somatic idioms" muammoli topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi radiosining "O'zbekiston – bizning umumiy uyimiz" nomli ko'rsatuvi va efirga uzatilgan yangiliklar dasturlari ssenariylarini tayyorlashda o'z ifodasini topgan (Qoraqalpoq teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-iyuldagi 05-22/298-son ma'lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlarning axborot mazmuni filolog-talabalarga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishning innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha yangi ekspert fikrlari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, O'zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola. Shundan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ikkitta ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalarni hisobga olmaganda, 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“2-bosqich filolog talabalariga chet tilidagi idiomatik iboralarini o'rgatishning nazariy-metodik asoslari”** nomli birinchi bobi uchta fasldan iborat. Bobning **birinchi faslida** ikkinchi kurs filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatish masalalari bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlar ko'rib chiqilgan.

Olimlar “idioma” va “idiomatika” tushunchalarining mohiyatini ta'riflashda yakdil emas. Masalan, T.V.Jerebilo idiomani “Ajralmas so'z birikmasi, uning ma'nosi alohida olingan so'zlarining ma'nosiga mos kelmaydi: “остаться с носом” (qoldirib ketmoq)”¹⁰ deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvda “idioma” atamasi rus tilshunoslik uchun an'anaviy bo'lgan “frazologik birikma” atamasi bilan tenglashtiriladi, ular V.V.Vinogradov tomonidan frazeologizmlar tasnifida semantik birikuvchanlik darajasi bo'yicha ajratilgan frazeologik birliklar qatoriga kiritiladi¹¹. Biroq, lingvistik adabiyotda ko'pincha ingliz tilshunosligining ta'siri bilan “idioma” tushunchasining boshqa talqinlari ham uchrab turadi, ya'ni “milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan har qanday obrazli ifoda (so'z birikmalari, maqollar, matallar, undovlar, ba'zi klishe'lar va hatto taqlid so'zlar)”¹².

Shakliy jihatdan idiomalarning aksariyati so'z birikmalariga teng, ya'ni ikki va undan ortiq komponentlarning birikmasidan iborat bo'lib, ular idiomalardan tashqarida mustaqil so'z turkumlari sifatida tasniflanadi. Shu nuqtai nazardan, A.I.Smirtitskiy terminologiyasiga ko'ra, idiomalar bir-cho'qqili (*одновершинный*) va ko'p-cho'qqili (*поливершинный*) bo'lishi mumkin¹³.

¹⁰ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Изд. 6-е, испр. и доп. – Назрань, 2016. – С. 140.

¹¹ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове) // Под. ред. Г. А. Золотовой. – 4-е изд. – Москва: Русский язык, 2001. – С. 28.

¹² Мочалина К.Н. К определению понятия «Идиома» в отечественной и зарубежной лингвистике // Известия Самарского научного центра РАН. – Самара, 2011. – №2-3. – С. 681.

¹³ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: МГУ, 1998. – С. 212.

Bizning tadqiqotimizda A.V. Kunin yondashuvi asos qilib olindi, u idiomalarni frazeologik birikmalar va frazeologik birliklar sifatida tan oladi, ya'ni to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalari, masalan, *have kissed the Blarney Stone* – “yolg'on gapirish” deb tarjima qilinadi¹⁴. Shu bilan birga, idiomalar komponentlari semantikasi o'zgarishi asosida semantik siljish (semantikaning ko'chishi, torayishi yoki kengayishi) emas, balki metaforik ko'chirish yotadi.

Ingliz frazeologiyasini o'qitish muammosiga bag'ishlangan muhim ishlar kognitiv lingvistikaga¹⁵ asoslangan. Gap shundaki, aksariyat idiomalar konseptual metaforaga¹⁶ asoslanadi va ingliz tili idiomatikasiga olamning milliy lisoniy manzarasini¹⁷ ifodalovchi muhim vosita sifatida qaralishi kerak. Bunga shuni qo'shimcha qilish kerakki, umuman olganda, lisoniy semantika (morfema, so'z, idiomalar, matn semantikasi) inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi va to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nolarning murakkab munosabati sifatida tuziladi. Shu ma'noda kognitiv lingvistika tilning ko'p jihatlari yoritishi mumkin.

O'zbekistonda ko'pchilik tadqiqotchilarning ingliz tilining idiomatik iboralariga bo'lgan qiziqishi sof filologik xususiyatga ega bo'lsa, umuman ingliz tilida idiomatik iboralarni o'rgatish muammolari e'tibordan chetda qolmoqda¹⁸.

Birinchi bobning **ikkinchi faslida** ingliz tilida idiomatik iboralarni o'rgatishda madaniyatlararo yondashuv haqida so'z yuritiladi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan, tilning ko'plab idiomalari tafakkur stereotiplarining eksplikatorlari sifatida ko'rib chiqiladi: “Stereotip – bu obyekt yoki vaziyat haqidagi milliy-madaniy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan qarash”¹⁹. Stereotiplar tizimi ma'lum bir tilning yaratuvchisi bo'lgan xalqning madaniy kodini shakllantiradi. Bir qator zamonaviy manbalarda ingliz frazeologiyasiga xos bo'lgan madaniy kodning ishonchli xususiyatlari keltirilgan. Shunday qilib, S.G. Tkachenko ingliz frazeologiyasida ifodalangan beshta asosiy madaniy kodlarni ko'rib chiqdi: antropotsentrik, aksional, biomorf, fetish, animik²⁰. Shu munosabat bilan umuman chet tilini va xususan, uning idiomalarini o'rgatishda madaniyatlararo yondashuvni ishlab chiqish katta istiqbolga ega. Globallashuv davrida madaniy to'siqlar muammosi nafaqat bartaraf etilmayapti,

¹⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Уч. пос. для ин-тов и фак. иностр. яз.– 3-е изд., стереотип. – Дубна: Феникс, 2005. – С. 15.

¹⁵ Гусельникова О. В. Когнитивный аспект изучения фразеологии // Актуальные вопросы современной науки. – Новосибирск, 2009. – №5-2. – С. 155-162; Белозёрова Е.Ю. Когнитивный аспект анализа современных фразеологических единиц английского языка // Вестник ТГПУ. – Томск, 2020. – №5 (211). – С. 80-87; Мотов С.В. Обучение английскому языку на лингвокогнитивной основе: фразеологический аспект // Вестник Тамбовского университета. Т. 26. – Тамбов, 2021. - № 194. – С. 35-45.

¹⁶ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004. - 256 с.

¹⁷ Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. - 2-е изд., испр. и доп. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.

¹⁸ Азизова Ф.С. Олий таълим муассасалари талабаларига ingliz tili frazeologizmларини ўргатишнинг лингвомаданий хусусиятлари (ingliz va ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD) дис... автореф. – Тошкент, 2018. – 56 б.; Рахимова Ш.П. Ingliz tili idiomatik iboralарини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Фил. фан. фалс. д-ри (PhD) дис... автореф. – Тошкент, 2019. – 48 б.

¹⁹ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – С. 178.

²⁰ Ткаченко С. Г. Культурные коды в английских фразеологических единицах с градуальной семантикой // Studia Germanica, Romanica et Comparatistica. Т. 13. 2017. – № 3(37). – С. 74-86.

balki sezilarli darajada keskinlashmoqda. Milliy madaniyatni e'tiborga olish va ona tiliga tayanish tamoyilini hisobga olish, o'z navbatida, *asl lingvomadaniyatga yo'naltirilish tamoyili* sifatida anglanadi²¹.

Madaniyatlararo yondashuvning asosiy xususiyati tilshunoslikning kommunikativ va aksiologik yondashuvlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan antropotsentrik paradigmasiga tayanishidir. Bugungi kunda V.V.Vorobyov tomonidan ishlab chiqilgan va kundalik hayotga tatbiq etilgan, *lingvomadaniy maydon, lingvokulturema* va *o'quv konsentri* tushunchalari bilan bir qatorda, *umumiy madaniyatshunoslik mavzusi*²² doirasida frazeologiyani o'qitishda madaniyatlararo yondashuvni qo'llash amaliyoti bizda katta qiziqish uyg'otmoqda: "Lingvomadaniy maydon umumiy ma'noga ega bo'lgan va o'zida madaniyatning tegishli tushunchalari tizimini aks ettiruvchi birliklarning ierarxik tizimidir"²³. V.V.Vorobyov lingvomadaniy maydon birligi deb lingvokulturema, ya'ni leksemani barcha madaniy konnotatsiyalari bilan ataydi. Bizningcha, idioma komponentlari ham lingvokulturemalardan boshqa narsa emas, chunki ular leksema maqomini yo'qotish orqali tilda mavjud bo'lgan madaniy assotsiatsiyalardan mahrum bo'lmaydi. Bu bir xil komponentli idiomalarni o'quv konsentrlariga, ya'ni "o'zaro mazmunli uzluksizlik bilan bog'langan, shuningdek, o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari va ta'lim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'quv materialining yetarli sinflari"ga guruhlash imkonini beradi²⁴. Biz tadqiqotimiz doirasida ushbu g'oyani amalga oshirish maqsadidamiz. Ushbu g'oyani biz olib borayotgan tadqiqot doirasida o'rganilishi kerak bo'lgan ingliz idiomalar doirasini somatik ma'noga ega bo'lgan lingvokulturemalarni, ya'ni *arm, leg, eye* va boshqa komponentlarni o'z ichiga olgan idiomalar bilan cheklash orqali amalga oshirish niyatidamiz.

Birinchi bobning **uchinchi faslida** idiomatik iboralarni o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining roli va o'rni belgilab berilgan. Bugungi kunda xorijiy tilning idiomatik iboralarini o'rgatishda turli innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. Biroq, ushbu tajriba yetarli va to'liq deb hisoblanmaydi, buni biz tomonimizdan amalga oshirilgan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili natijalari ham tasdiqlaydi. Masalan, N.N.Soninaning²⁵ ishida frazeologiyani o'qitishning kognitiv-kommunikativ metodikasi taklif etilgan bo'lib, u o'quvchilarda ingliz tilidagi frazeologizmlarni milliy-madaniy qadriyatlar belgisi sifatida qabul qilish qobiliyatini shaxsga yo'naltirilgan maqsadli tarbiyalashni nazarda tutadi. Garchi, olamning individual va milliy lisoniy manzaralarini ajratmasa ham til idiomalarini o'rgatishda

²¹ Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие для студ. лингв, ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2009. – С. 156.

²² Шантарович А.А. Межкультурное обучение иностранных студентов фразеологическим единицам со словом-концептом «Бог» // 6-я научная конференция студентов и аспирантов Белорусского государственного университета: материалы конф. В 3 ч. Ч. 2. 13–24 мая. – Минск: БГУ, 2019. – С. 240-243.

²³ Воробьев В.В. Лингвокультурология. Монография. – Москва: РУДН, 2006. – С. 301.

²⁴ O'sha manba. – С. 259.

²⁵ Сони́на Н.Н. Когнитивно-коммуникативная методика обучения фразеологии английского языка школьников 8-9 классов гимназии: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2012. – 22 с.

kognitiv yondashuvdan foydalanish tajribasi D.Yu.Kuzminaning²⁶ maqolasida yoritilgan. A.V.Babenko²⁷ ishida rus tili frazeologiyasini chet tili sifatida masofaviy ta'lim texnologiyasi elementlari asosida o'rgatish asoslari ishlab chiqilgan.

Bizning oldimizda turgan amaliy vazifalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, o'rganilishi lozim bo'lgan til materialini *lingvomadaniy maydonlar* va *o'quv konsentrlari* bo'yicha guruhlashning biz tanlagan tamoyilini inobatga olgan holda, innovatsion ta'lim texnologiyalarini, ya'ni *muammoli ta'lim texnologiyasini O'YOTFRT texnologiyasi va interaktiv texnologiya usullari* bilan birgalikda qo'llash maqbul ko'rinadi.

Muammoli ta'lim talabalar faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirishga asoslangan texnologiyalardan biridir. Muammoli ta'lim texnologiyasining kategoriya apparati professor L.T.Axmedova tomonidan yozilgan kitobda to'liq bayon qilingan bo'lib, unda *muammoli vazifa*, *muammoli savol*, *muammoli topshiriq*, *muammoli vaziyat* kabi tushunchalar yoritilgan²⁸. Interaktiv texnologiya esa ta'limning innovatsion turlaridan biri bo'lib, barcha o'quv jarayonining ishtirokchilari o'rtasida ko'p tomonlama o'zaro aloqaga tayanadi. Interaktiv texnologiyaning uslublaridan quyidagilarni ajratish mumkin: 1) munozara (*diskussiya*) *usuli* – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari ma'lum bir mavzu, muammo yoki o'rganilayotgan hodisani birgalikda o'rganadigan jamoaviy muhokama; 2) *empatiya usuli* – shaxsiy analogiyani o'tkazish, ya'ni qo'yilgan muammoni shartli ravishda “his qilish”, uni boshdan kechirish; 3) *“Xatolar bilan ma'ruza” usuli* – talabalarga taqdim etiladigan nazariy materialdagi oldindan belgilangan noaniqliklarni aniqlash uchun mo'ljallangan ma'lumot.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, ingliz tilining idiomatikasini o'rgatishda o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasini (O'YOTFRT) qo'llash mumkin. O'YOTFRT uslublaridan dissertatsiyada quyidagilar qo'llanildi: 1) *“G'oyalar savati” usuli*, bu usul o'rganilayotgan muammo bo'yicha o'quvchilarning fikrlari “yig'iladigan” savatchaning shartli tasviri tufayli shunday nomga ega; 2) *“Bashoratlar daraxti” usuli*, bu usul antitsipatsiyani rivojlantirishning samarali usuli sifatida ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bob **“Filologiya oliy o'quv yurtlari talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatishning hozirgi holati”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Ikkinchi bobning **birinchi fasli** 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi bosqich filolog talabalar uchun me'yoriy hujjatlar va darsliklar tahliliga bag'ishlangan. Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari shakllantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalarga nisbatan faqat eng umumiy, juda mavhum talablarni o'z

²⁶. Кузьмина Д.Ю., Прокофьева С.С. Идиомы в романе Джеральда Даррелла «My Family and other Animals» и их реализация на уроке иностранного языка как отражение иноязычной картины мира // Санкт-Петербургский образовательный вестник. – СПб., 2017. – №1 (5). – С. 28-33.

²⁷ Babenko A.V. Лингводидактические основы обучения фразеологическим единицам в практическом курсе русского языка как иностранного (уровень В1-В2): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2020. – 23 с.

²⁸ Axmedova L.T., Lagay E.A. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Т.: Fan va texnologiya, 2016. – С. 251-254.

ichiga oladi. Xususan, idiomatik kompetensiyani shakllantirish muammosi, shuningdek, chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo yondashuvdan foydalanish zarurati Davlat ta’lim standartlarida bevosita o‘z aksini topmagan. «60230100 – Filologiya va tillarni o‘rgatish (ingliz tili)» o‘quv yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablarida filolog talabalarda shakllanishi kerak bo‘lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar belgilangan. Biroq, hujjatda hech qanday xorijiy tilga oid kompetensiyalar (kommunikativ, lingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madaniy va boshqalar) ko‘rsatilmagan. Shuning uchun, O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida yanada ahamiyatli bo‘lib kelayotgan talablarga Yevropa Kengashining CEFR monografiyasida ko‘rsatilgan talablarga amal qilinishi zarur. Ushbu hujjatni tahlil qilishda biz faqat B2 darajasini hisobga oldik, chunki filologiya yo‘nalishi bitiruvchilari C1 darajasiga mos kelishi kerak bo‘lsa-da, ikkinchi bosqichda C1 darajasi, mantiqan, erishish mumkin bo‘lmagan daraja hisoblanadi. Shuning uchun biz faqat B2 darajasini ko‘rib chiqdik. Ushbu hujjatning ba’zi bo‘limlarida idiomatik iboralar kommunikativ xatoliklarga sabab bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan²⁹. Demak, oliy ta’lim muassasasi oldida talabalarni suhbatdoshlarining nutqida idiomatikani to‘g‘ri tushunishga va uni o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish vazifasi turadi.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun birinchi semestrda sakkizinchi semestr gacha o‘qitiladigan “O‘qish va yozish amaliyoti” fanidan ikkinchi kurs uchun sillabusda talabalarni idiomatik iboralar va so‘zlashuv iboralaridan nazarda tutilgan ma’no va assotsiativ ma’noni anglagan holda foydalanishga o‘rgatish fanning maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

O‘quv dasturida tavsiya etilgan Nel Anderson³⁰ darsligida idiomatik kompetensiyani takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmagan. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan David Bolke³¹ darsligida ingliz tili idiomalarini semantizatsiyalashga qaratilgan alohida topshiriqlar mavjud. Biroq talabalarda idiomatik kompetensiyani tizimli takomillashtirish ushbu darslikning maqsadi emas. Shunday ekan, ushbu darslikning umumiy afzalliklarini inkor etmagan holda shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilida tahsil olayotgan filolog talabalarida ingliz tilida idiomatik kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish uchun bu yetarli emas.

Ikkinchi bobning **ikkinchi fasli** ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rganishni ikkinchi bosqich filolog talabalariga lingvistik va metodik muammo sifatida tavsiflashni maqsad qiladi. Avvalo, dissertatsiya doirasida bizning mashg‘ulotlarimizda o‘rganiladigan til hodisalari doirasi prinsipial ravishda cheklangan. Shunday qilib, frazali fe’llar, “kundalik iboralar” va maqollar idiomalar ro‘yxatidan chiqarildi. Bunda idiomatikaning quyidagi muhim lingvistik xususiyatidan kelib chiqamiz: idiomalar ko‘pincha aniq semantik chegaralardan mahrum bo‘lgan, shartli ravishda aytganda, so‘zlar yordamida

²⁹ Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Companion volume, Council of Europe Publishing. – Strasbourg: Council of Europe, 2020. – C. 48,53,54,82.

³⁰ Neil J Anderson (2013) Active Skills for Reading. Third Edition. Asia and Global ELT: Andrew Robinson.

³¹ David Bohlke, Dorothy E. Zemach (2013) Skillful 2. Reading and writing. Macmillan.

“tushuntirib bo‘lmaydigan” konseptlarni (ya’ni, olam lisoniy manzarasining konstruktiv elementlarini) ifodalaydi. Bu o‘rinda so‘z obyekt, hodisa va jarayonlarni nomlash muammosining o‘zi haqida emas, balki so‘zlovchi subyektning ularga nisbatan qadriyatli munosabatini ifodalash zarurati haqida bormoqda. Demak, idiomalar semantikasining emotiv komponenti ularning tilda mavjud bo‘lishining eng muhim sabab va maqsadlaridan biridir. Biroq, so‘zning emotivligi bevosita uning leksik ma’nosida mujassam bo‘lsa, idiomalarning emotivligi biroz boshqacha tabiatga ega: “Frazeologik birliklarning emotivligi frazeologizmning ichki shakli, ya’ni frazeologizmning semantik yaxlitligi asosida yotuvchi va u bilan frazeologizmning signifikativ ma’nosining obrazli-assotsiativ aloqasini keltirib chiqaradigan obraz-geshtalt bilan “uyg‘otiladi”³². Shu bilan birga, idiomaning obrazlilik xususiyati ham muhimdir. *Idiomaning ichki shakli* uning lug‘aviy ma’nosidir (A.Vejbitskaya ta’rifi bilan aytganda – “semantik primitiv”³³), va vaqt o‘tishi bilan bu obrazli ma’no ko‘chishga, ya’ni metafora yoki metonimiyaga aylanishi mumkin.

Ularning ayrim lingvodidaktik xususiyatlari ham idiomalarning ko‘rsatilgan lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Avvalo, ingliz tilidagi idiomatikani o‘rgatish kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak. Tanqidiy fikrlash strategiyasining klassik sxemasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb taxmin qilish mumkin: “qidiruv – tushunish – refleksiya”. Bu shuni anglatadiki, muayyan idiomaning tarkibiy qismlari yoki semantikasi haqidagi bilimlarni tekshirish bo‘yicha topshiriqlar tegishli nazariy yoki zaruriy materiallari bilan birga bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, muhim birliklarning semantizatsiyasi qonuniy va tabiiy ravishda kontekstni, birinchi navbatda, madaniy kontekstni hisobga olib qulaylashtiriladi. Madaniy kontekst tushunchasi “muayyan etnik guruhning moddiy yutuqlari va uning axloqiy va etik ko‘rsatmalari va qoidalarini birlashtirgan asosiy bilimlar”³⁴ deb ta’riflanadi

Ikkinchi bobning **uchinchi faslida** ingliz va o‘zbek tillari idiomalarining chog‘ishtirma tahlili amalga oshirilgan. Ishda idiomalarning obrazlilik asosida yotuvchi troplarning turlarga oid umumiy xarakterdagi quyidagi bir qancha muhim kuzatishlar amalga oshirildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ko‘p sonli idiomalar qiyosiy so‘z birikmasi, metafora metonimiya, giperbola, litota, grotesk kabi troplarni amalga oshiradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi idioma tizimlari o‘rtasida qayd etilgan o‘xshashlik bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud: 1. O‘zbek tilida tarkibida fitonimlarni, ya’ni o‘simliklarning nomlarini o‘z ichiga olgan idiomalar deyarli uchramaydi, ingliz tilida esa ular juda ko‘p, masalan: *pushing up the daises* – tom ma’noda “moychechak termoq”, ya’ni “o‘lik bo‘lmoq”. 2. Chog‘ishtirilayotgan har ikki tildagi idiomalarning aksariyati jonli kundalik-so‘zlashuv nutqi elementlariga asoslangan. Biroq ingliz tilidagi iboralar orasida

³² Хомякова Н.А. Эмотивность идиом // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. – СПб., 2007. – №40. – С. 301.

³³ Вежицкая А. Семантические универсалии и «примитивное мышление» // Язык. Культура. Познание. – М. 1996. – С. 291-325.

³⁴ Halliday M.A.K. and Hasan R. Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – P. 7.

o‘z kelib chiqishi jihatidan kitobiy-adabiy manbalar, avvalo, Injil matni bilan bog‘liq iboralar ham talaygina, masalan: *Salt of the Earth* – “yerning tuzi”, ya’ni “Eng yaxshi, eng muhim odamlar”. Bundan tashqari ingliz tilida ingliz yoki jahon klassik adabiyotidan kelib chiqqan ko‘plab idiomalar mavjud. O‘zbek tilida kelib chiqishi “kitobiy-adabiy” bo‘lgan idiomalar deyarli uchramaydi, bu esa og‘zaki (folklor) an‘anasining yozma (postfolklor) an‘asidan yaqqol ustunligini ko‘rsatadi. 3. Ingliz tilida Yevropaning boshqa tillarida bo‘lgani kabi qadimgi afsonalar bilan bog‘liq bo‘lgan idiomalar muhim o‘rinni egallaydi. *Achilles’ heel* (*the weakest spot*) (eng zaif joy) – “Axillesning tovoni”, ya’ni “eng zaif joy”. *Pandora’s box* – “Pandoraning qutisi”, ya’ni “qo‘zg‘atilgan muammolar; beparvolik natijasida yuzaga kelgan ofatlar” ma’nosida. 4. Ikki xalqning madaniy-tarixiy tajribasi va turmush tarzi, yashash joyining tabiiy-iqlim sharoitlarining o‘ziga xosligiga ko‘ra o‘zbek va ingliz idiomalari o‘rtasida ko‘plab farqlar mavjud. Bu, xususan, idiomalarda mujassamlashgan tayanch tushunchalar tizimida o‘z ifodasini topadi. Masalan, o‘zbekcha dunyoning konseptual tasviri uchun *yer, osmon, o‘t, tuya* muhim sanalsa, inglizlar uchun *sea, ship, boat* asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotlari doirasida “**Somatik idiomalarning ingliz-o‘zbek va o‘zbek-ingliz tilidagi o‘quv lug‘ati**” ishlab chiqilgan bo‘lib, u eksperimental o‘qitish jarayonida diaktik material sifatida qo‘llanildi. Ushbu ishlanma ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Sh.Rahmatullayevning³⁵ “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan o‘zbek somatik idiomalar (jami 258 ta holat), shuningdek, Ikkinchi qismda 453ta namunadagi inglizcha somatik idiomalar A.V.Kuninning³⁶ “Inglizcha-ruscha frazeologik birliklarning katta lug‘ati”dan (ularni ingliz tilidagi autentik nutqda qo‘llash misollari bilan birga) tanlab olingan.

A.V.Kuninning lug‘at materiallaridan birvarakayiga tanlab olish natijasida idiomalarning shakllanishida qatnashadigan 38 ta somatik leksemalar ajratib olindi. Eng ko‘p idioma-somatizmlar *eye* (ko‘z) kabi leksik somatizm ishtirokida hosil bo‘lishi aniqlandi – 77 ta holat. Bu borada birmuncha unumsiz bo‘lgan *ear* (quloq) – 42 holatda, *face* (yuz) – 38 holatda, *hand* (qo‘l) – 30 leksemalari hisoblanadi. Faqat bitta idioma hosil qiluvchi *kidney* (buyrak), *nail* (tirnoq), *skull* (bosh suyagi) va boshqa ba’zi so‘zlar nihoyatda kammahsul hisoblanadi.

Umuman olganda, chog‘ishtirilayotgan tillarning har biridagi somatik idiomalar betakror va, shubhasiz, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham o‘zbek tilida o‘qitiladigan guruhlarda talabalarga ingliz tili idiomalarini o‘rgatishda interferensiya, fasilitatsiya hollari nisbatan kam kuzatiladi.

Ishning uchinchi bobi “**Ikkinchi bosqich filolog talabalariga innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatish metodikasi**” deb nomlanib, uch fasldan iborat. Uchinchi bobning birinchi paragrafida 2-bosqich filolog talabalariga innovatsion texnologiyalar asosida ingliz tilining idiomatik iboralarni o‘rgatish bo‘yicha

³⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

³⁶ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Уч. пос. для ин- тов и фак. иностр. яз.–3-е изд., стереотип. – Дубна: Феникс, 2005. – 488 с.

topshiriq va mashqlar tizimi tavsifi berilgan. Tadqiqot doirasida “**Somatic idioms**” deb nomlangan vazifalar va mashqlar tizimi shakllantirildi. Ushbu nom, birinchi navbatda, ushbu mashqlarda qo‘llaniladigan o‘quv til materialini ingliz tili somatik idiomalarining tanlovi, shu jumladan ularning leksikografik tavsiflari ekanligini qayd etadi. Biz tomonimizdan tuzilgan “Somatik idiomalarning ingliz-o‘zbek va o‘zbek-ingliz tilidagi o‘quv lug‘ati” o‘quv lug‘atida (A.V.Kunin tomonidan 1984-yildagi “Katta inglizcha-ruscha frazeologik birliklar lug‘ati”dan namunalar olingan) keltirilgan somatik leksemalar bilan tuzilgan idiomalar soni 453 ta bo‘lib, bu miqdor mustaqil o‘rganish uchun ajratilgan 60 soatga bo‘linadi. Bu taxminan o‘rtacha 7,5ni tashkil etadi. Shunday qilib, bir soatlik mashg‘ulotda 6-8ta idiomani o‘zlashtirish kerakligi aniqlandi. Shu tarzda tuzilgan idioma guruhlarini *o‘quv materialini tartibga solish konsentrlari* deb hisoblash mumkin. Bunday konsentrlarga guruhlangan barcha somatik idiomalar qandaydir umumiy elementga, ya’ni leksema-somatizmga ega ekanligidan kelib chiqib, lingvokulturema-somatizmlar asos bo‘lgan konsentrlar bilan izohlanadigan lingvomadaniy maydonlarning mavjudligi haqida mulohaza yuritish mumkin. Shu bilan birga, bir nechta lingvokulturema leksemalar ular tarkibidagi idiomalar soniga qarab bir konsentrga birlashtirilishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, mustaqil o‘qish uchun ajratilgan soatlarni hisobga olib, somatik lingvokulturemalar va ularning birlashmalari asosida yaratilgan idiomalar soniga ko‘ra tuzilgan 16ta konsentrlar shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval

“Somatic idioms” mashq tizimi uchun soatlar sonini hisoblash

Konsentrlar	Lingvokulturema	O‘rganilgan idiomalar soni	O‘rganilayotgan idiomalarning 1-lug‘ati tartib raqamlari	Soatlar soni
1-konsentr	«Eye» («ko‘z»)	77	№№107-183	8
	«Eyebrow» («qosh»)	2	№№184-185	
	«Eyelash» («kiprik»)	1	№№186	
2-konsentr	«Ear» («quloq»)	42	№№61-103	6
3-konsentr	«Face» («yuz»)	38	№№188-226	6
	«Cheek» («Yonoq»)	3	№№51-53	
	«Eyetooth» («aql tishi»)	1	№№187	
	«Chin» («iyak»)	5	№№56-60	
4-konsentr	«Foot» («boldir»)	32	№№251-281	4
5-konsentr	«Hand» («qo‘l»)	30	№№300-329	4
6-konsentr	«Head» («bosh»)	26	№№330-355	4
7-konsentr	«Finger» («barmoq»)	25	№№227-250	4
8-konsentr	«Heart» («yurak»)	22	№№356-376	4
9-konsentr	«Arm» («qo‘l»)	19	№№1-19	4
	«Elbow» («tirsak»)	3	№№104-106	
	«Palm» («kaft»)	2	№№444-445	
	«Shoulder» («Yelka»)	4	№№448-451	
10-konsentr	«Back» («kurak»)	20	№№20-39	4
	«Backbone» («umurtqa»)	1	№№40	
	«Loin» («biqin»)	1	№№416	
	«Neck» («bo‘yin»)	4	№№425-428	
11-konsentr	«Brain» («miya»)	10	№№41-50	2
	«Kidney» («buyrak»)	1	№№388	
	«Lung» («o‘pka»)	1	№№417	
	«Nail» («Tirnoq»)	1	№№424	

	«Liver» («jigar»)	1	№№415	
	«Skull» («bosh chanoq»)	1	№№453	
12-konsentr	«Chest» («ko'krak»)	2	№№54-55	2
	«Heel» («tovon»)	9	№№377-385	
	«Hip» («bel»)	2	№№386-387	
	«Knee» («tizz»)	4	№№389-392	
	«Ribs» («qovurg'a»)	2	№№446-447	
	«Skeleton» («skelet»)	1	№№452	
13-konsentr	«Hair» («soch»)	17	№№282-299	2
14-konsentr	«Leg» («oyoq»)	13	№№393-405	2
15-konsentr	«Nose» («burun»)	15	№№429-443	2
16-konsentr	«Lips» («lab»)	9	№№406-414	2
	«Mouth» («og'iz»)	6	№№418-423	
Jami idiomalar soni:		453	Jami soat	60 soat

“**Somatic idioms**” mashqlar tizimi har bir konsentri o‘rganish uchun bittadan o‘n oltigacha muammoli vaziyatdan iborat. Har bir muammoli vaziyatni o‘rganish olti bosqichda amalga oshirilganligi sababli, biz har bir bosqichda O‘YOTFR yoki interaktiv texnologiyani o‘ziga xos usulidan foydalandik. Hammasi bo‘lib “Somatic idioms” mashqlar tizimining hajmi 96ta mashqdan iboratdir.

Misol tariqasida ikkinchi “Ear” (“Quloq”) konsentri rivojlanishini ko‘rib chiqaylik. 6 soatlik yuklama. Muammoli vaziyat: Ear “Quloq” leksemi ishtirok etgan idiomalar yordamida mish-mish va g‘iybatning xavfliligiga tinglovchilarni qanday ishonitirish mumkin? (Problem situation: How do you convince the audience of the dangers of rumors and gossips through idioms with the lexeme “ear”?). Muammoli savol: Nima uchun mish-mishlar va g‘iybatlar zararli? Nima uchun “quloq” leksemi ishtirok etgan idiomalar ko‘pincha salbiy emotsional ma‘nolarni o‘z ichiga oladi? (Problematic questions: Why are rumors and gossips harmful? Why do idioms with the lexeme “ear” often contain negative emotional meaning?) Muammoli topshiriq: (1) O‘zbek va ingliz madaniyatlarida og‘zaki ravishda uzatiladigan mish-mish va xabarlar munosabatni solishtiring. (2) G.X.Andersenning ertagini tahlil qiling. “The True Truth” ertakning ingliz tilidagi matnini Daniya tilidan so‘zma- so‘z tarjima sifatida qabul qilib, uni ear (quloq) leksemi bilan idiomalardan foydalanib qayta yozing. ((1) Problem tasks: Compare the attitude towards rumors and news spread orally in Uzbek and English cultures. (2) Analyze the fairy tale “The True Truth” by G.Kh. Andersen. Accepting the English text of the fairy tale as a literal translation from Danish, rewrite it using idioms with the lexeme “ear”).

O‘YOTFRning “Bashoratlar daraxti” usuli uchun beriladigan topshiriq (yechimni qidirish bosqichida): “Asl haqiqat” ertagi uchun “Bashoratlar daraxti” tuzing, bunda shoxlari “ear” (quloq) so‘zi qatnashgan idiomalar bilan almashtirilishi mumkin bo‘lsin, barglar esa almashtirishga mos keladigan idiomalardan iborat bo‘lsin. (Create a “Tree of predictions” for the fairy tale “The True Truth”, where the branches are phrases that can be replaced with idioms including the word “ear”, and the leaves are idioms suitable for such replacement).

“Xatolar bilan ma‘ruza” usuli uchun beriladigan topshiriq (kuzatuv bosqichi): G.X.Andersenning “Asl haqiqat” ertagini qayta hikoya qiluvchi matnlarda talabalar tomonidan tuzilgan **ear** (quloq) leksemi idiomalarni qo‘llash maqsadga

muvofiqligini muhokama qiling. (Discuss the appropriateness of using idioms with the lexeme “ear” in G.Kh. Andersen’s fairy tale “The True Truth”, in the texts-retellings made by students).

Uchinchi bobning **ikkinchi fasli** eksperimental tadqiqot natijalarining sifat va miqdoriy tahlilini o‘z ichiga oladi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (Nukus shahri), Urganch davlat universiteti (Urganch shahri) va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent shahri) eksperimental mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan joy sifatida belgilandi. Ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha biz tomonimizdan takomillashtirilgan metodika hamda “Somatic idioms” topshiriq va mashqlar tizimining samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan o‘quv eksperimenti uch bosqichdan iborat bo‘ldi: 1) qidiruv-aniqlash bosqichi (2022–2023 o‘quv yili). Ushbu bosqichda “O‘qish va yozish praktikumi” fanidan o‘quv mashg‘ulotlari tahlil qilindi; 2) shakllantiruvchi bosqich (2023-yil sentyabr-dekabr). Ushbu bosqichda eksperimental o‘qitish dasturi ishlab chiqildi, tasdiqlovchi kesim (test topshirish) o‘tkazildi, eksperimental o‘qitish o‘tkazildi; 3) nazorat-baholash bosqichi (2024-yil yanvar-fevral). Ushbu bosqichda yakuniy kesim (test topshirish), shuningdek, eksperimental o‘qitish natijalarining miqdoriy va sifat tahlili amalga oshirildi.

Tasdiqlovchi kesim test shaklida o‘tkazildi. Biz ingliz tilidagi somatik idiomalar tarkibiga kiruvchi leksik somatizmlarning har biri uchun bitta testdan hisoblab, jami 38 ta test tuzdik. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu leksik birliklar somatik idiomalar o‘quv konsentrlarini shakllantiruvchi lingvokulturema sifatida ko‘rib chiqilgan. 38 ta testdan 30 tasi yopiq shakldagi test topshiriqlari sifatida tuzilgan bo‘lib, to‘rtta javob varianti berilgan, ulardan biri to‘g‘ri hisoblangan. Ushbu testlar asosan ingliz tilidagi somatik idiomalarning semantikasini (tasdiqlovchi kesimda) va komponent tarkibini (yakuniy kesimda) bilish darajasini tekshirishga qaratilgan. Qolgan 8 ta test ochiq shakldagi topshiriqlar bo‘lib, ularda javob variantlari berilmagan. Ular talabalarda idiomatik kompetensiyaning asosiy komponentlarini mavjudligini tekshirishga qaratilgan edi. Baholash 100 ballik tizim bo‘yicha amalga oshirildi, yopiq shakldagi har bir topshiriq uchun 2 ball, ochiq shakldagi har bir topshiriq uchun 5 ball hisoblangan. Eksperimental ishlarni bajarish uchun uchta turli universitetdan jami 355 nafar talaba jalb etilgan. Eksperimental guruhlardagi talabalar soni 170 nafarni tashkil etdi, nazorat guruhidagi talabalar esa 185 nafar edi.

Ingliz tilidagi idiomatik kompetensiya shakllanganlik darajasini aniqlash (IKShD) maqsadida talaba guruhlarining o‘rtacha bahosini hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llanildi:
$$O'rtacha\ baho = (N1*5 + N2*4 + N3*3 + N4*2) / N,$$
 bu yerda N1 – tasdiqlovchi kesim va yakuniy kesimda yuqori darajaga ega bo‘lgan talabalar soni; N2 – o‘rtacha darajaga ega bo‘lgan talabalar soni; N3 – past darajaga ega bo‘lgan talabalar soni; N4 – qoniqarsiz baho olgan talabalar soni, ya’ni ingliz tilidagi idiomatik kompetensiya shakllanganligi darajasida shartli ravishda “nol” darajasiga ega bo‘lgan talabalar; N – guruhdagi umumiy talabalar soni. Tasdiqlovchi va yakuniy kesimlar natijalarining miqdoriy ko‘rsatkichlari 2, 3, 4-jadvalda keltirilgan:

Ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha tasdiqlovchi kesim natijalari

Tasdiqlovchi kesim							
OTM	Talabalar soni	Daraja				O'rtacha ball	IKShD
		Nolinchi	Past	O'rtacha	Yuqori		
QDU	23	4	9	7	2	3,17	63%
UrDU	158	22	58	37	17	2,85	57%
O'zDJTU	174	22	72	58	22	3,46	69%
<i>Jami</i>	<i>355</i>	<i>48</i>	<i>139</i>	<i>102</i>	<i>41</i>	<i>3,17</i>	<i>63%</i>

Ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy kesim natijalari (nazorat guruhlari)


Nazorat guruhlari							
OTM	Talabalar son	Daraja				O'rtacha ball	IKShD
		Nolinchi	Past	O'rtacha	Yuqori		
QDU	12	0	3	9	0	3,75	75%
UrDU	84	1	26	51	6	3,74	75%
O'zDJTU	89	3	26	56	4	3,69	74%
<i>Jami</i>	<i>185</i>	<i>4</i>	<i>55</i>	<i>116</i>	<i>10</i>	<i>3,71</i>	<i>74%</i>

Ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy kesim natijalari (eksperimental guruhlar)

Eksperimental guruhlar							
OTM	Talabalar soni	Daraja				O'rtacha ball	IKShD
		Nolinchi	Past	O'rtacha	Yuqori		
QDU	11	0	4	3	4	4	80%
UrDU	74	1	24	22	27	4,01	80%
O'zDJTU	85	3	5	15	63	4,66	93%
<i>Jami</i>	<i>170</i>	<i>4</i>	<i>33</i>	<i>40</i>	<i>94</i>	<i>4,34</i>	<i>87%</i>

Jadvallarda ko'rsatilgan yakuniy kesim natijalariga ko'ra, eksperimental guruhlardagi o'rtacha baho 5 balldan 4,34 ni tashkil etdi, nazorat guruhlaridagi o'rtacha baho esa 3,71 ball. Ta'kidlash kerakki, tasdiqlovchi kesim natijalarida o'xshash ko'rsatkich 3,17 ga teng edi. 2, 3, 4-jadvaldagi ma'lumotlar asosida nazorat va eksperimental guruhlardagi tasdiqlovchi va yakuniy kesim natijalarini, shuningdek, IKShD foizda hisoblab, taqqoslash mumkin. 1-rasmda o'tkazilgan

dissertatsion tadqiqot doirasidagi o'quv tajribasining umumiy natijalarini aks ettiruvchi diagramma ko'rsatilgan (1-rasm).



1-rasm. Ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi (IKShD) bo'yicha o'quv tajribasining umumiy diagrammasi

Shunday qilib, eksperimental tadqiqot natijalariga ko'ra, eksperimental guruhlarda ingliz tilidagi idiomatik kompetensiya shakllanganligi darajasi tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan "Somatic idioms" mashqlar tizimi asosida ta'lim olgan talabalar, an'anaviy metodika asosida o'qigan nazorat guruhlariga qaraganda 13% yuqori natijaga ega bo'lgan. Eksperimental va nazorat guruhlarida olingan o'rtacha ballarning statistik ahamiyatini tasdiqlash uchun t-Student mezoni qo'llanildi, u ikki turdagi guruhlar uchun olingan statistik xususiyatlarga asoslanib hisoblangan (Jadval 5).

5-jadval

Ekspirimental va nazorat guruhlarida olingan o'rtacha ballarning statistik xususiyatlari

Guruhlar	Guruhlar soni, n	O'rtacha arifmetik., \bar{X}	Mediana, Me	Moda, M_0	Dispersiya, DX	O'rtacha kvadrat chetlashuv., S
EG	18	4,61	4,65	4,69	0,01	0,11
NG	18	4,04	4,07	4	0,01	0,1

5-jadval ma'lumotlariga asoslanib olingan hisob-kitoblarga ko'ra, eksperimental guruhlardagi o'rtacha ball nazorat guruhlariga o'rtacha ballidan yuqoriligi aniqlandi va o'rtacha ballar orasidagi farq amaliy maqsadlar uchun ahamiyatli ekanini tasdiqladi hamda tadqiqotimiz samaradorligini isbotlab berdi.

Uchinchi bobning **uchinchi faslida** ikkinchi kurs filolog talabalariga ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Ikkinchi kurs filolog talabalariga ingliz tili idiomatik iboralarni eksperimental o'rgatish jarayonida olingan tajribalardan kelib chiqib, quyidagi umumiy metodik tavsiyalarni taklif etish mumkin:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi talabalarga ingliz tilidagi idiomatik kompetensiyani shakllantiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni, mustaqil qaror qabul qilish va mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini singdirishga, shuningdek,

ikkinchi bosqich filolog talabalarida kognitiv (bilish) va ijodiy (yaratuvchanlik) qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

2. Yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish konsepsiyasiga ko‘ra, muammoli ta‘lim texnologiyasi *assotsiativ-reflektor* bo‘lishi kerak, ya‘ni talabalarni taklif qilingan muammoli masalalar, vazifalar va topshiriqlarni hal qilishga qaratilgan faol motivatsiyani rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

3. Muammoli ta‘lim texnologiyasi oltita bosqichdan iborat bo‘lishi kerak: muammoli vaziyatni qo‘yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o‘tkazish; muammoning yechimini qidirish; “aha-reaksiya”; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish bosqichi. Shu bilan birga: A) Muammoli vaziyatni qo‘yish ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin: muammoli savolni qo‘yish va muammoli vazifani qo‘yish; B) Muammoli vaziyatni psixologik holatga o‘tkazish bosqichi o‘qituvchi va talabalar uchun ko‘plab ehtimoliy harakat ssenariylarini o‘z ichiga oladi; C) Muammoning yechimini qidirish bosqichi ham bir necha ssenariy asosida amalga oshirilishi mumkin, asosiylari – “Prediction Tree” (“Bashoratlar daraxti” va “Basket of ideas”(G‘oyalar savati)” usullari yordamida gipotezalarni ishlab chiqish; D) “Aha-reaksiya” deb nomlangan bosqich talabaga taklif etilgan muammoli savolga (vazifaga) to‘satdan qaror qabul qilish jarayoni uchun sharoit yaratadi, bu esa talabaning yuqori darajadagi mustaqilligini talab qiladi; E) Topilgan yechimni amalga oshirish bosqichi ham talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligini talab qiladi, chunki bu o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni refleksiya qilishini anglatadi; F) Kuzatish bosqichi interaktiv texnologiya elementlarini qo‘llashni talab qiladi, xususan, empatiya usuli, munozara usuli va “Xatolar bilan ma’ruza” texnikasi, chunki bu bosqich olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga, talabalar ijodiy qobiliyatlarini, faol nutqni va tasviriy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

XULOSA

1. Idiomalar leksemalarning barqaror takrorlanuvchi birikmalari bo‘lib, ular: a) tarkibining doimiyligi va komponentlarning belgilangan ketma-ketligi bilan ajralib turadi; b) tarkibida kamida bitta mustaqil so‘z turkumiga ega; v) ikkilamchi nominatsiya natijasi hisoblanadi, ya‘ni ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, uning asosida ko‘pincha kognitiv metafora yotadi; g) nutqni ekspressivlashtirishga xizmat qiladi, ammo shu bilan birga nominativ funksiyani bajaradi va tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga qodir.

2. Chet tilini o‘qitishga madaniyatlararo yondashuv nafaqat o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyati haqidagi asosiy (fon) bilimlariga tayanishni, balki ta‘lim oluvchilarning “ona” madaniyatiga jiddiy e‘tibor berishni ham nazarda tutadi, chunki u “begona” madaniyatni idrok etishning asosi hisoblanadi. Ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o‘rgatishga nisbatan bu ona tili idiomatikasi bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish zarurligini anglatadi. Lingvomadaniy maydon va lingvokulturema tushunchalari chet tili idiomatikasini o‘rgatish nazariyasi va amaliyoti uchun metodologik ahamiyatga ega.

3. Frazali fe'llarni, "kundalik iboralarni" idiomalar qatoriga kiritmaslik kerak, chunki ular emotiv ma'no ifodalamaydi. Ishda idioma-somatizmlar atamasi ostida o'z tarkibiga sof leksik somatizmlarni, ya'ni tana a'zolarining maishiy, "tibbiy bo'lmagan" nomlarini, shuningdek, mimika va imo-ishora elementlarining nomlarini o'z ichiga olgan idiomalar tushuniladi. Tadqiqotda o'zbek tilidagi 258 ta, ingliz tilidagi 453 ta idioma-somatizmlar akademik lug'atlar asosida tanlab olingan.

4. Ingliz va o'zbek idiomalarini chog'ishtirish ikki til o'rtasidagi bir qator o'xshashliklarni aniqlash imkonini berdi. Masalan, har ikkala tilda ham o'xshatish, metafora, metonimiya, giperbola, grotesk kabilar ko'plab idiomalarning obrazligi asosi bo'lib xizmat qiladi. Ikkala tilda ham komponent-lingvokulturemalar sifatida zoonimlar, ranglar, oziq-ovqat nomlari, kiyim yoki uning elementlari, somatizmlarni o'z ichiga olgan idiomalar keng tarqalgan. Shu bilan birga, o'zbek va ingliz idiomatikalari o'rtasida ikki xalqning madaniy-tarixiy tajribasi va turmush tarzi, shuningdek, ular yashaydigan tabiiy-iqlim sharoitlarining farqlanishi bilan bog'liq ko'plab farqlar mavjud. Shuningdek, o'zbek tilidagi idiomalarning mutlaq ko'pchiligining manbai so'zlashuv nutqi bo'lsa, ingliz tilidagi idiomalarning ko'pchiligi adabiy-kitobiy kelib chiqishga ega.

5. Tadqiqotda ikkinchi bosqich filolog-talabalari tomonidan o'rganiladigan ingliz tili idiomatik iboralarni lingvokulturema-somatizmlar yetakchiligidagi lingvomadaniy maydonlarning idiomatik tarkibini hisobga olish asosida shakllantiriladigan o'quv konsentrlari ko'rinishida guruhlashning didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan.

6. Muammoli ta'lim texnologiyasining olti bosqichi (muammoli vaziyatni qo'yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o'tkazish; muammoning yechimini izlash; "aha-reaksiya"; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish) doirasida madaniyatlararo yondashuvni rivojlantirish asosida, hamda bu jarayonda interfaol texnologiya usullari (munozara usuli, empatiya usuli va "Xatolar bilan ma'ruza" usuli) hamda O'YOTFRT texnologiyasi ("G'oyalar savati" va "Bashoratlar daraxti" usullari)ga tayanilgan holda ingliz tili idiomatik iboralarni o'rgatish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi.

7. Tadqiqotda "Somatic idioms" muammoli topshiriq va mashqlar tizimi ishlab chiqildi va muammoli ta'lim texnologiyasining olti bosqichi (muammoli vaziyatni qo'yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o'tkazish; muammoning yechimini izlash; "aha-reaksiya"; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish) doirasida madaniyatlararo yondashuvni rivojlantirish asosida, hamda bu jarayonda munozara usuli, empatiya usuli va "Xatolar bilan ma'ruza" usuli kabi interfaol texnologiya usullari hamda O'YOTFRT texnologiyasining "G'oyalar savati" va "Bashoratlar daraxti" usullariga tayanilgan holda ikkinchi bosqich filolog talabalariga ingliz tili idiomatik iboralarni o'rgatish metodikasi takomillashtirildi.

8. Tadqiqot natijalarining miqdoriy tahlili natijasida ishlab chiqilgan "Somatic idioms" mashqlar tizimi yordamida o'qitilgan tajriba guruhlarida ingliz tilida idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi an'anaviy metodika yordamida o'qitilgan nazorat guruhlariga nisbatan 13% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalarning ishonchligini tekshirish uchun Styudent

mezonidan foydalanildi, bu esa biz tomonimizdan takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi uchun lingvistik turkum fanlari o‘quv dasturlariga “idiomatik kompetensiya” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu atama bilan o‘zga til idiomatik nutq birliklarini tanib olish, izohlash, shuningdek, ularni o‘zga til muloqoti jarayonida mustaqil ravishda qo‘llash qobiliyatini tashkil etuvchi bilim va ko‘nikmalar majmuini belgilash lozim.

2. Tadqiqotda tavsiya etilgan muammoli ta’lim texnologiyasini olti bosqichda amalga oshirish tamoyili (muammoli vaziyatni qo‘yish; muammoli vaziyatni psixologik holatga o‘tkazish; muammoning yechimini izlash; “aha-reaksiya”; topilgan yechimni amalga oshirish; kuzatish) 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari tomonidan sakkiz semestr (1-8 semestr) davomida o‘rganiladigan o‘quv materiallarining o‘ziga xos xususiyatlariga zarurat tug‘ilganda moslashtirilgan holda “O‘qish va yozish amaliyoti” kursini to‘liq o‘zlashtirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

3. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Somatic idioms” muammoli topshiriqlar va mashqlar tizimi hamda idiomatik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha testlardan talabalarda mavjud bo‘lgan o‘z-o‘zini baholash, lingvistik va nutqiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini korreksiyalashda foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Somatik idiomalarning inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha elektron lug‘atini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

5. Ingliz tili idiomatikasini o‘rgatishni birinchi semestrda boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lib, talabalarga idiomatikani tilning alohida kichik tizimlaridan biri sifatida tushunishni singdirishdir.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАЛАБАЕВА МАДИНА АМАНГАЛИЕВНА

**ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
ОБУЧЕНИЯ ИДИОМАТИЧЕСКИМ ВЫРАЖЕНИЯМ АНГЛИЙСКОГО
ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания
(английский язык)**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Ped 4119

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Ахмедова Лайлохон Толибжоновна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хашимова Дилдархан Уринбаевна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каипбергенова Феруза Тулепбергеновна
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 по присуждению учёных степеней при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, город Нукус, улица Ч. Абдирова, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25; факс: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрированоза № ____). Адрес: 230112, город Нукус, улица Ч. Абдирова, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

К.К.Оразымбетов

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.О.Танибергенов

Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

К.А.Юсупов

Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в свете интенсивно происходящих процессов глобализации и информатизации всех сфер жизни общества, стремительно возрастает значимость обучения иностранным языкам, прежде всего, английскому. Английский язык рассматривается как наиболее востребованный язык международного общения во многих регионах мира, и в этом качестве он продолжает упрочивать свои позиции. На фоне этого все большее значение приобретает обучение идиоматике английского языка как одного из ведущих аспектов обучения студентов-филологов, будущих учителей английского языка. Проблема обучения идиоматике английского языка рассматривается в мировой лингводидактике в свете социокультурного, лингвострановедческого и лингвокультурологического подходов к обучению иностранному языку. С учетом того обстоятельства, что практически все идиоматические выражения являются экспликаторами национальных культурных стереотипов особую актуальность приобретают исследования, выполненные в русле межкультурного подхода в обучении, способствующего преодолению культурных барьеров в коммуникации.

В мировой науке исследованию проблем обучения идиоматическим выражениям английского языка уделяется достаточно большое внимание. В частности, этой проблематикой занимаются ученые в Государственном университете Сент-Клауда (США), Мидлсекском университете (Великобритания), Московском городском университете (РФ), Казанском федеральном университете (РФ), Забайкальском государственном университете (РФ), Университете Хайдарабада (Индия), Университете Тхьонгмай (Вьетнам), Университете Адибуана Сурабая (Индонезия). Потребность в обучении идиоматическим выражениям английского языка обусловлена изменениями условий рынка труда, в которых предъявляются повышенные требования к уровню подготовки студентов-филологов. Важным компонентом этой подготовки признается привитие им идиоматической компетенции.

В Узбекистане изучению иностранных языков уделяется особое внимание. Об этом свидетельствует и тот факт, что в нашей стране приоритетными становятся такие задачи, как «подготовка современных кадров, владеющих несколькими иностранными языками, проведение научной работы по иностранным языкам, совершенствование методики преподавания языка»¹. Это свидетельствует об актуальности разработки эффективных методик и технологий, направленных на совершенствование у студентов-филологов различных субкомпонентов иноязычной коммуникативной компетенции. Одним из таких субкомпонентов является языковая компетенция, полноценное овладение которой предполагает собой

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018-йил 5-мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрагимовичнинг таълим ва маданият бўлимига таърифнома. (Электронный ресурс) URL: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhont-ra-ibrat-mazhm>. Дата обращения: 24.01.2024 й.

привитие знаний идиоматики изучаемого языка. С учетом этого проблема разработки инновационных образовательных технологий обучения идиоматическим выражениям английского языка студентов-филологов второго курса приобретает особую значимость и актуальность.

Диссертационное исследование служит решению задач по повышению результативности образования, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», №УП-5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении “Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 г.», Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-3775 от 5 июня 2018 г. «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», №ПП-5117 от 19 мая 2021 г. «О мерах по поднятию на качественно новый уровень популяризации изучения иностранных языков в Узбекистане», Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №ПКМ-610 от 11 августа 2017 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», №ПКМ-312 от 19 мая 2021 г. «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», а также в ряде иных нормативно-правовых документов, относящихся к данной сфере.

Соответствие темы диссертационной работы приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики – 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления при социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей стране исследованию вопросов обучения иностранным языкам посвящены работы Т.К.Сатторова, Г.Т. Махкамовой, Л.Т.Ахмедовой, Ж.Ж. Жалолова, Г.Х.Бакиевой, М.Т. Ирискулова, Ф.М. Рашидовой М.Д. Джусупова³⁷ и др. Разработке и усовершенствованию инновационных образовательных педагогических технологий обучения иностранным языкам посвящены труды таких отечественных ученых, как О.Мусурмонова, Ф.Р.Юзликаев,

³⁷ Сатторов Т.К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал – Т., 2009. – С. 45-150; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. Автореф. дисс... доктора пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 294 с.; Бакиева Г.Х. Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. “English B1. Student’s book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges”. – Т.: Узбекистон, 2014 г. – 176 с.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим журнали. – Т., 2016. – № 6. – Б. 70-71; Джусупов М. Речевая интерференция как результат двуединого отрицательного воздействия // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – М., 2021. – №1. – С. 23-40.

У.Ш.Бегимкулов, К.Д.Рискулова³⁸ и мн. др. Исследованию различных аспектов идиоматики английского, русского и каракалпакского языков посвящены труды каракалпакских ученых Г.Айназаровой, Ш.Б.Хожанова, А.К.Пирниязовой, У.Кеулимжаевой³⁹ и др. Проблемы обучения идиоматике английского языка занимались такие ученые, как Н.А.Тухтаходжаева, Ш.П.Рахимова, М.А.Раджабова, Ш.К.Ниязметова⁴⁰.

Проблемам развития методики обучения иностранным языкам в Республике Каракалпакстан посвящены труды Г.Ю.Атаджановой, Д.К.Джумамбетовой, Ш.А.Оразымбетова⁴¹. Исследованию фразеологизмов с компонентами-соматизмами посвящены диссертационные работы таких каракалпакских ученых, как Б.К. Бекниязов и С.А. Арзымбетова⁴².

